

# SHAXMAT BO‘YICHA “AL-BERUNIY” II-XALQARO TURNIRI

## NIZOMI

2025 yil 2-12 fevral Toshkent

### **1. Musobaqa maqsadi va vazifalari**

**1.1** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14 yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “2026-yil O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko‘rish hamda shaxmatni ommaviy harakatga aylantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-150-son qaror ijrosini ta’minlash;

**1.2.** O‘zbekiston milliy terma jamoalari a’zolarining sport mahoratini oshirish;

**1.3.** Xorijlik mahoratli shaxmatchilar bilan o‘zaro tajriba almashish.

### **2. Musobaqani o‘tkazish vaqti va joyi**

**2.1.** Musobaqa 2025-yil 2-12 fevral kunlari Xalqaro Shaxmat Akademiyasi binosida o‘tkaziladi.

### **3. Musobaqani o‘tkazish tartibi**

**3.1.** Musobaqa FIDE qoidalari asosida 3 guruhda tashkil etiladi:

“**Masters**” guruhida 2600 va undan yuqori reytingga ega bo‘lgan 6 nafar xorijlik shaxmatchilar qatnashish huquqiga ega. Musobaqa tashkilotchilari tarafidan esa 4 nafar tanlab olingan o‘zbekistonlik shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin.

“**Challengers**” guruhida 2500 va undan yuqori reytingga ega bo‘lgan 6 nafar xorijlik shaxmatchilar qatnashish huquqiga ega. Musobaqa tashkilotchilari tarafidan esa 4 nafar tanlab olingan o‘zbekistonlik shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin.

“**Futures**” guruhida 2400 va undan yuqori reytingga ega bo‘lgan 6 nafar xorijlik shaxmatchilar qatnashish huquqiga ega. Musobaqa tashkilotchilari tarafidan esa 4 nafar tanlab olingan o‘zbekistonlik ayol(qiz) shaxmatchilar ishtirok etishi mumkin.

**3.2.** Musobaqa aylanma tizim standart yo‘nalishida 9 turda o‘tkaziladi. Har bir ishtirokchiga 90 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 30 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi. 30 yurishgacha durangga kelishish mumkin emas.

**3.3.** Turga maksimal kechikich vaqti 15 daqiqa. Ketma-ket 3 ta turga kelmagan ishtirokchilar musobaqadan chetlatiladi.

**3.4.** Taklif etilgan xorijlik shaxmatchilarning reytinglari 2025 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra hisobga olinadi.

**3.5.** Musobaqada ishtirok etishni istagan horijlik shaxmatchilar 2025 yilning 15 yanvariga qadar, O‘zbekiston Shaxmat Federatsiyasining rasmiy elektron pochta [uzchess@inbox.ru](mailto:uzchess@inbox.ru) orqali ariza yuborishlari mumkin.

**3.6.** O‘zbekistonlik shaxmatchilar tarkibi O‘zbekiston Shaxmat Federatsiyasi trenerlar kengashi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi. O‘zbekistonlik shaxmatchilar 2025 yilning 15 yanvariga qadar trenerlar kengashiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

#### **4. Musobaqa dasturi**

<b>Sana</b>	<b>Tadbir</b>	<b>Vaqt</b>
02.02.2025	Kelish kuni	
03.02.2025	Ochilish marosimi	14 <sup>00</sup>
	1-tur	14 <sup>30</sup>
04.02.2025	2-tur	14 <sup>00</sup>
05.02.2025	3-tur	14 <sup>00</sup>
06.02.2025	4-tur	14 <sup>00</sup>
07.02.2025	5-tur	14 <sup>00</sup>
08.02.2025	6-tur	14 <sup>00</sup>
09.02.2025	7-tur	14 <sup>00</sup>
10.02.2025	8-tur	14 <sup>00</sup>
11.02.2025	9-tur	11 <sup>00</sup>
	Tay-breyk	16 <sup>00</sup>
	Yopilish marosimi	18 <sup>00</sup>
12.02.2025	Ishtirokchilarni kuzatish	

#### **5. Musobaqa o‘tkazish qoidalari**

**5.1.** G‘oliblar to‘plangan ochkolar soni bo‘yicha aniqlanadi. Agar ochkolar soni teng bo‘lsa, u holda 1-o‘rin uchun tay-breyk tashkil etiladi. Tay-breyk tartibi: 2 partiya blis match. Vaqt nazorati: 3+2.

**5.2.** Agar tay-breykda ishtirokchilar ochkolari teng bo‘lib qolsa u holda armageddon tartibida g‘olib aniqlanadi. Armageddonning vaqt nazorati oqlar uchun 4 daqiqa qoralarga 3 daqiqa beriladi. Shuningdek, 60 yurishdan keyin har bir yurishga 2 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

**5.3.** Qolgan o‘rinlarni aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar inobatga olinadi:

1. O‘zaro uchrashuv;
2. Sonneborn-Berger bali;
3. G‘alabalar soni;
4. Qoralarda ko‘proq g‘alabalar soni;

**5.4.** Agar ishtirokchilarning ochkolari teng bo‘lib qolsa, ularning sovrinlari o‘zaro taqsimlanmaydi.

**5.5.** Pul mukofotlari sovrindorlarga taqdirlash marosimida barcha hujjatlarni taqdim etgandan keyin ularning hisob raqamlariga, bank kartalariga yoki naqd ko‘rinishida berilishi mumkin.

**5.6.** Taqdirlash marosimida ishtirok etmagan ishtirokchilarga sovrinlar berilmaydi. Sovrinlardan bank harajatlari, soliq va majburiy to‘lovlar ushlab qolinishi mumkin.

**5.7. Umumiy mukofot jamg‘armasi – 68 700 AQSH dollarini tashkil etadi.**

<b>T/r</b>	<b>“MASTERS” guruhi</b>	<b>“CHALLENGERS” guruhi</b>	<b>“FUTURES” guruhi</b>
<b>1.</b>	10 000 AQSH dollari	5 000 AQSH dollari	3 500 AQSH dollari
<b>2.</b>	8 000 AQSH dollari	4 000 AQSH dollari	2 500 AQSH dollari
<b>3.</b>	6 000 AQSH dollari	3 000 AQSH dollari	2 000 AQSH dollari
<b>4.</b>	4 000 AQSH dollari	2 000 AQSH dollari	1 500 AQSH dollari
<b>5.</b>	3 000 AQSH dollari	1 000 AQSH dollari	1 000 AQSH dollari
<b>6.</b>	2 000 AQSH dollari	800 AQSH dollari	800 AQSH dollari
<b>7.</b>	1 500 AQSH dollari	700 AQSH dollari	700 AQSH dollari
<b>8.</b>	1 200 AQSH dollari	500 AQSH dollari	500 AQSH dollari
<b>9.</b>	1 000 AQSH dollari	500 AQSH dollari	300 AQSH dollari
<b>10.</b>	1 000 AQSH dollari	500 AQSH dollari	200 AQSH dollari
<b>JAMI</b>	<b>37 700 AQSH dollari</b>	<b>18 000 AQSH dollari</b>	<b>13 000 AQSH dollari</b>

**5.8.** O‘zbekistonlik sovrindorlarga sovrinlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha milliy valyutada beriladi.

**6. Apellyatsiya qo‘mitasi**

**6.1.** Turnir natijasi bo‘yicha berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish uchun kamida 5 kishidan iborat apellyatsiya qo‘mitasi tashkil etiladi. Apellyatsiya qo‘mitasi tarkibi tashkiliy qo‘mita tomonidan tasdiqlanadi.

**6.2.** Turnir hakamlaridan va ularning qabul qilgan qarorlaridan norozi bo‘lgan ishtirokchilar musobaqa jarayonida apellyatsiya qo‘mitasiga murojaat qilishlari mumkin.

**7. Vizalar**

**7.1.** O‘zbekistonga kirish uchun viza zarur bo‘lgan ishtirokchilar 2025 yilning 15 yanvariga qadar ro‘yhatdan o‘tishlari pasport nus’halarini yuborishlari kerak. Aks holda, tashkilotchilar viza yordamini kafolatlamaydi.

**7.2.** Agar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi viza berishga ruhsat bermasa, tashkilotchilar viza bo‘yicha hech qanday yordam ko‘rsata olmaydi.

**8. Kiyinish tartibi va sog‘likni saqlash choralari**

**8.1.** FIDE kiyinish qoidalari talablariga amal qiling. Aks, holda ishtirokchilar o‘yinda ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

**8.2.** Tana harorati ko‘tarilgan yoki boshqa kasallik belgilari bo‘lsa, ishtirokchi turnirdan chetlashtirilishi mumkin.

## **9. Fair play qoidalar**

**9.1.** Barcha ishtirokchilar FIDening Fair play qoidalariga amal qilishlari va hamkorlik qilishlari talab etiladi. O‘yinchilar istalgan vaqtda bosh hakamning Fair play qoidalariga asoslangan yakuniy qaroriga binoan turnirdan chetlatilishi mumkin.

**9.2.** Barcha o‘yinchilar yuqorida aytib o‘tilgan harakatlar ustidan arbitraj, maslahatlashuv yoki biron bir yurisdiksiya doirasida sudga shikoyat qilish huquqiga ega emas. Ishtirokchilar turnir davomida tuzilgan juftliklar uchun apellyatsiyaga berish huquqiga ega emaslar. Turnirda ro‘yhatdan o‘tish orqali o‘yinchilar turnir bilan bog‘lik hech qanday moliyaviy kompensatsiya yoki turnir bilan bog‘liq tuzatish talab qilish huquqiga ega bo‘lmaydi.

## **10. Musobaqani moliyalashtirish**

**10.1.** Sovrin jamg‘armasi, tashkiliy harajatlar, taklif etilgan hakamlar va sportchilarning, rasmiy shaxslarning transfer, turar joy va musobaqa davrida ovqatlanish harajatlari tashkilotchilar tomonidan qoplanadi.

**10.2.** Qolgan ishtirokchilar va murabbiylarning harajatlari safarga yuboruvchi tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

## **11. Yakuniy qoidalar**

**11.1.** Musobaqalarning muvaffaqiyatli o‘tishi uchun musobaqa nizomiga tashkiliy qo‘mita tomonidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

**11.2.** Turnirda ishtirok etadigan barcha shaxmatchilar Uzchess tomonidan tashkil etiladigan media tadbirlarida ishtirok etishi va intervyu berishlari talab etiladi. Agar ushtirokchi partiyalarini shahrlashdan va intervyu berishdan bosh tortsa, har bir intervyu bermaganligi uchun 300 AQSH dollari miqdorida jarimaga tortiladi.

## **12. Aloqa ma’lumotlari:**

Telefon raqami: +99895 511-12-00

Web sahifa: [www.uzchess.uz](http://www.uzchess.uz)

Telegram kanal <https://t.me/uzchess>

E-mail: [uzchess@inbox.ru](mailto:uzchess@inbox.ru)